

SURXONDARYO MILLIY LIBOSLARINING TARIXI VA TAHLILI

Raximqulova Sarvinoz Abdurashid qizi,
t.f.f.d., TerDU,
Raximov Akbar Xolmurodovich, t.f.f.d.,
TerDU dotsenti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Surxondaryo milliy liboslari va ularda ishlatilgan bezak turlari o'rganildi. Tahlil qilish jarayonida ularning tikilishi, to'qilishi, rangi, shakli murakkabligi, bezaklarning har bir turi o'zgacha ma'no berishi, bir-biridan ajralib turishi aniqlandi. Surxon vohasi liboslarida bezaklarning murakkab bo'lishi, ranglarning xilma-xilligiga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar:

Bezak, naqsh, islamiy naqshlar, mato, etnografiya, ana'anaviy kiyim.

Аннотация.

В данной статье изучаются национальные костюмы Сурхандарьинской оазиса и виды используемых в них украшений. В ходе анализа было установлено, что их пошив, ткачество, цвет и форма отличаются друг от друга, и каждый вид украшения имеет особое значение. Особое внимание уделено сложности украшений и разнообразию цветов в костюмах Сурхандарьинского оазиса.

Ключевые слова:

Декор, узоры, исламские мотивы, ткань, этнография, традиционная одежда.



Annotation.

This article studies the national costumes of Surkhondaryo and the types of decorations used in them. During the analysis, it was found that their sewing, weaving, color, and shape are different from each other, and each type of decoration has a special meaning. Attention was paid to the complexity of the decorations and the variety of colors in the costumes of the Surkhondaryo oasis.

Key words:

Decoration, pattern, Islamic patterns, fabric, ethnography, traditional clothing.

Kirish

Mamlakatimizda tom ma'noda siyosiy va madaniy taraqqiyotda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ochiq va tadiriy rivojlanuvchi mamlakat sifatida yaxlit ijtimoiy tizim yaratishga erishildi. O'z navbatida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi shakllanayotgan bir paytda o'tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy-ma'naviy madaniyatimiz-u, bebaho qadimiy tariximiz, urf-odatlarimiz-u, an'ana va marosimlarimiz bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xalqimiz tarixini o'rganish, uning kelib chiqish etnoslarini ilmiy, xolisona tahlil etish bugungi kun dolzarb masalasidir.¹

Surxondaryo etnografiyasining turli jabhalarini ilmiy tarixiy jihatdan tadqiq etishda ma'lum o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, uni to'laroq yoritish imkonini beradi. Qadimgi tarixga ega Surxon vohasi, davlatchiligimizning asoslarini shakllanishida ham muhim o'rin egallaydi.²

Uzoq ijtimoiy-siyosiy, tarixiy davrlarni o'tishi bilan kiyimlar o'zgargan bo'lsada, ammo kiyimlarni bichish va tikish uslublari o'ziga xosligini davrlar o'tsada yo'qolmagan. Voha kiyimlari iqlim sharoitiga qarab turli xil kiyilgan. Tog'li hudud bilan cho'l mintaqalarida yashovchi aholining liboslari va ko'p qavatligi farq qilgan. An'anaviy xalq kiyimlari davrlar osha rivojlanib shakllangan.³

Metodlar

Surxondaryo vohasi issiq iqlimli diyor hisoblanadi. Ushbu hudud quyoshli, yorqin, tana harorati yil davomida boshqa hududlarga nisbatan baland, quruq havo, issiq shamol esishi bilan kuzatiladi.

O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Surxondaryoda ham liboslar ko'p qavatli bo'lib, qavatma-qavat, ustma-ust kiyilgan. Bu uslubda kiyinish, birinchidan, qadimdan ayollar yoshi, darajasini bildirib turuvchi omil, ikkinchidan esa issiq iqlim sharoitida kiyim ostida komfort temperaturani saqlab turuvchi himoya bo'lib xizmat qilgan. Surxon ayollari kiyimining ko'p qavatligini tahlil qilsak, ularda boy xonimlar koproq ustma-ust liboslar kiyishgan. Ayollar ichidan kiyiladigan libosi ustidan kiyiladigan liboslardan uzun bo'lganligi bilan ajralib turadi. Libosning eng uchida hamda etak qismida kashtalari bo'lib, ustki libosning tagidan ko'rinib turgan. Ustidan kiyilgan libosning yeng uchida va old qismida to'liq kashta bilan bezatilgan. Uning ustidan jelak va kurta kiyilgan. Liboslar qavatlar uch qavat bo'lishiga qaramay, havo almashuvi yaxshi bo'lgan. Shuningdek, ayollar liboslarining keng bichimi ham havo almashuvini ta'minlab bergan.

Liboslarni badiiy bezashda naqshlarni o'rganishning yana bir nozik tomoni ularning libosdagi kompozision joylashuvidir. Loyiha eskizlarida naqshlarni joylashuvini mayda detallarigacha tahlil qilinishi zarur. Geometrik naqshlar inson qomatini anatomik qaytarishi uni bachkana bo'lib ko'rinishiga olib keladi. Shunday ekan har bir dizayner naqsh va belgilarning ramziy ma'nosini o'rganigan holda kiyimga ko'chirishi yoki liboslarni badiiy bezashda foydalanishi mumkin.⁴

Natijalar

Rozetkalar orasiga qo'shimcha ravishda gulli naqshlardan foydalanish mumkin - gulli vazalar, katta kurtaklar yoki guldastalar (dasta-gul), lolalar (lola), barglar (barg), shoxlar (shoh), bodom (bodomcha, bodom-gul), qushlarning haykalchalari (qaldirg'och - qaldirg'och, bulbul - bulbul), kamroq tez-tez krill alifbosida, "5-may" kabi yodgorlik xarakteridagi yozuvlar yoki egalarining ismlari mavjud. Bodom naqshlari har doim ikkita rangda (oq - qora, sariq - qora, qizil - ko'k va boshqalar) tasvirlangan bo'lib, bu uslub uning sehrli himoya kuchini ta'kidlaydi va kuchaytiradi.⁵

Vohaning liboslarini tahlil qilinganda, "kurta", "jelak", "kebanak", "peshchak", "peshkumo" yoki "kiftaki" liboslarida bezaklarni turlarni ko'rishimiz mumkin. Bezak sifatida ular munchoq, biser, jiyak va

1 Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.-404b.

2 Абдуллаева Т.А., Хасанова С.А. Одежда узбеков XIX – начало XX века: – Ташкент: Фан, 1986. – 142 с.

3 Турсуналиев К. Каталог вышивок Узбекистана XIX-XX вв. – Ташкент: Фан, 1976. – 128 с.

4 Kamilova X.X., Raximova Z.I., Raxmatullayeva U.S. O'zbek milliy libosi va an'anaviy qadriyatlar. Monografiya. –Toshkent. G'. G'ulom nomidagi nashriyot. 2018-yil.

5 Полицук О.А., Алибекова М.И. Интеграция народных традиций в современное решение аксессуаров в этническом стиле. Инновационное развитие легкой и текстильной промышленности» (ИНТЕКС-2018):Сборник материалов Международной научной конференции, Москва, 17–19 апреля 2018 года. Том Част 2. – М.ФГБОУ ВО«РГУ им. А.Н. Косыгина», 2018. – С. 92-95.



1 - rasm. XIX- XX arsdagi Surxondaryo kashtali ayollar ko'ylagi.



2-rasm. Jelak

kashtalardan foydalanishgan. Libos kashtalarini yanada chiroyli chiqishi uchun ularni munchoqli taqinchoqlar bilan birgalikda kiyishgan. Bezakda aynan laqay elati ko'ylaklarida tangali bezaklar ko'p uchraydi. Ularda jiyaklar ham oqilona ishlatilgan. Jiyaklarni ko'ylakdan tashqari lozimlarning ostki qismida tikilgan. Jiyaklar kurtalarning old o'yindisiga ham qo'llanilgan bo'lib ularni munchoqli popuklar bilan bezatishgan. Bezaklarni aynan libosga tikilganidan tashqari ularni kundalik ro'zg'or

buyumlarida ham ko'p qo'llanilgan.

Surxon vohasi ayollari ustki kiyimlaridan bo'lgan jelak yo'l-yo'l matodan tikilib, asosan astarsiz, avradan iboratdir. Jelakning yenglari, yoqasi hamda etaklariga chiroyli jiyak tikilgan. Voha ayollari jelakni ko'ylaklarining ustidan kiyishgan.

Voha aholisi ayollarining ustki kiyimlaridan biri

chopon bo'lib, ayollar choponi beqasam, ipak hamda yarim ipakli matolardan tikilgan. Paxtalik choponlar qishda, paxtasiz yengil choponlar yozda kiyilgan. Ayollar choponi erkaklar choponidan ma'lum darajada farq qilib, ayollar choponiga oldilarini yopib yurishi uchun tugma yoki bog'ishchalar qilingan.⁶

Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning undagi ayrim bo'laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog'liq.

Naqsh milliy amaliy xunarmandchilikda katta o'rin tutadi. Naqshning asosiy 4 ta funksiyasi mavjud bo'lib: birinchidan, konstruktiv – u jismni tektonikasini saqlab, uni fazoviy idrok etishga yordam beradi; ikkinchidan, ekspluatatsion - buyumdan foydalanishni osonlashtiradi; uchinchidan, reprezentatsion - buyumni qiymatini oshiradi; to'rtinchidan, psixologik - inson ruhiyatiga ta'sir etib uni hayajonlantiradi yoki aksincha tinchlantiradi.

Bezak san'atining uzoq tarixi mobaynida naqshlarning ko'pgina turlari yuzaga keldi: geometrik, o'simlik, kompleks va h.k., oddiy bo'linmalardan to murakkab tutashmalargacha. Naqshni o'rganishning muhim taraflaridan biri kompozitsion xususiyatlarni tuzilishini aniqlash bo'libgina qolmay, balki naqshning tashkil etuvchilarni izohlash ham alohida o'rin tutadi. Insoniyat yaralishi bilan yuzaga kelgan naqsh hayotni emotsional va estetik jihatdan boyitib, maishiy jihozlar, matolar, zargarlik buyumlari va kitoblarni timsoliy strukturasi tashkil etadi.⁷

Muhokama

Kashtado'zlik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi, qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo'lib, o'sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog'liq bo'ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O'simlik, qush motivlarini aniq

ko'rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlariga bo'rtirib kontur qilib chiziladi.⁸

Naqsh ramzini o'rganish - tasviriy savodxonlikning alohida bo'limi bo'lib, buyum va liboslarni badiiy qiyofasini bezash va shakllantirish bilan bog'liq vazifalarini bajaruvchilar uchun keraklidir. Dizayner libosni yaratishda badiiy bezak berish uchun loyihadagi naqshlarning ramziy ma'nosini o'rganishi kerak. Har bir belgining ramziy ma'nosini anglamasdan turib liboslarda qo'llash mumkin emas. Masalan, Toshkent do'ppisidagi naqshni libosda qo'llash tavsiya etilmaydi. Odam tasvirini ham liboslarga ko'chirish mumkin emas, shuningdek yuqorida ta'kidlangan arab kalligrafiyasini geometrik naqshini ham liboslarni bezashda qo'llanilmagani ma'qul.⁹

Liboslarni badiiy bezashda naqshlarni o'rganishning yana bir nozik tomoni ularning libosdagi kompozitsion joylashuvidir. Loyiha eskizlarida naqshlarni joylashuvini mayda detallarigacha tahlil qilinishi zarur. Geometrik naqshlar inson qomatini anatomik qaytarishi uni bachkana bo'lib ko'rinishiga olib keladi. Shunday ekan har bir dizayner naqsh va belgilarning ramziy ma'nosini o'rgangan xolda kiyimga ko'chirishi yoki liboslarni badiiy bezashda foydalanishi mumkin.¹⁰

Xulosa

Xalq hunarmandlari o'zlarining oilasi, urug'i, jamoasi "mavjud bo'lgan" ideal dunyoni, uyg'un olamni shunday tasavvur qilishadi. Bu tumorlar turlari himoyalangan va go'yo muvaffaqiyatli rivojlanish uchun dasturlashtirilgan. O'rta maydon burchaklarida hunarmandlar farishta – farishta deb ataydigan qanotli siymoning tasvirini ham uchratishimiz bejiz emas, maydonning o'zi esa jingalak naqshli keng hoshiya – mehrobgul (tom ma'noda, mehrob naqsh); hoshiyaning tashqi chetlari mana shu sehrli olam chegaralarini ramziy ifodalovchi hamda farovonlik ramzi bo'lgan to'lqinsimon yugurish naqshli oba (toj. suv) bilan bezatilgan.

6 U.S Raxmatullayeva, S.A Raximqulova, Surxondaryo kostyumi va ularning ramziy ma'nolari // Тенденции развития текстильной промышленности: проблемы и пути решения 23-24 april 2021 yil (218-220 betlar).

7 Raxmatullayeva U., Raximqulova S. Surkhandarya Jewellery And Their Symbols //INTERNATIONAL JOURNAL FOR INNOVATIVE YENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, ISSN 2456-5083 VOL-09 ISSUYe-11 2020.

8 Rakhimkulova S., Baymurova N., Xulkaliyeva G., Muxaamadiyeva N., Boriyeva M. Creation Of Methods Of Making National Jewellery In Surkhandarya Costume // Journal of Pharmaceutical Negative Results DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S07.493 Volume 13 | Special Issue 7, 2022.

9 Sodiqova Nafisa. O'zbek milliy kiyimlari. XIX –XX asrlar T.: Sharq 2003 y, 150–b.

10 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) y.